
QO'SHALOQ MAROSIM

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning joriy yil 6-7 may kunlari viloyatimizga tashrifi davomida berilgan topshiriqlari ijrosini ta'minlash yuzasidan va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27 yilligi arafasida Quvasoy shahridagi "Pakana" mahallasi hududida yangi korxonalar – kalava ip bo'yash yo'nalishidagi "Ferteks" mas'uliyati cheklangan jamiyati korxonasi ochilish marosimi o'tkazildi. Marosim davomida uning ishtirokchilari mazkur yangi korxonaning ishlab chiqarish jarayonlari, va bu erda ishchilarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdilar.

Ochilish marosimi davomida shahardagi "Kvarts" AJ, "Ferganatsement" MChJ, "Quvasoyshifer xroztil" MChJ, "Quvasoyta'mirqurilishg'isht" MChJ, "Farg'ona mukammal servis" MChJ, "Kvarts Agro" AJ korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ko'rgazmali yarmarkasi ham tashkil etildi.

Quvasoy shahar hokimligi Axborot xizmati.

2019-12-10 14:40:18